

DADAM-HAYOTIMNING TAYANCHI

Shermuhammadova Madina Sherxonovna

Osiyo Xalqaro Universted Tibbiyot fakulteti 1- kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17247863>

Annotatsiya. Ushbu maqolada muallif hayotida otaning tutgan oʻrni va beqiyos ahamiyati yoritib berilgan. Ota – farzand uchun nafaqat mehribon ota, balki hayot maktabining ustozidir. Muallif oʻz otasining mehnatsevarligi, halolligi, odamgarchiligi va oilaga boʻlgan mehrini alohida taʼkidlab, ulardan ibrat olish lozimligini koʻrsatadi. Shuningdek, maqolada otaning oiladagi masʼuliyati, jamiytdagi obroʻ-eʼtibori va farzand tarbiyasidagi bevosita oʻrni keng yoritilgan. Muallifning fikricha, ota farzand uchun eng katta tayanch, hayot yoʻlida yoʻlchi yulduz va doimo kuch bagʻishlovchi suyanchdir.

Kalit soʻzlar: ota, suyanch, mehr, ustoz, odamgarchilik, mehnatsevarlik, masʼuliyat, halollik, tarbiya, faxr.

Har bir inson hayotida eng aziz va muqaddas zotlardan biri — otadir. Mening dadam ham shunday insonlardan biri boʻlib, u kishi mening doimo suyanchim, yoʻl koʻrsatuvchim va eng yaqin doʻstimdir.

Dadam oʻzining mehribonligi, sabr-toqati va masʼuliyati bilan har doim menga oʻrnak boʻlib keladilar. U kishi oilamiz uchun tinimsiz mehnat qiladilar, hech qachon qiyinchiliklardan choʻchimasdan, bizni baxtli qilish uchun bor kuchlarini sarflaydilar. Dadamning mehnatsevarligi menga ham ilhom beradi: men ham kelajakda u kishiga oʻxshab halol, mehnatkash inson boʻlishni istayman.

Dadam nafaqat uyda, balki jamiyatda ham hurmatga sazovor inson. U kishining odamlarga mehribonligi, samimiyligi, halolligi hammani oʻziga tortadi. Men dadamning bunday sifatlarini juda qadrlayman va faxrlanaman.

Mening dadamning eng katta fazilatlaridan biri — oilasiga boʻlgan mehridir. Qachonki men qiynalsam yoki tushkunlikka tushsam, dadamning birgina tasalli soʻzi menga kuch bagʻishlaydi. Shu bois, men uchun dadam faqat ota emas, balki eng yaxshi ustoz, eng yaqin doʻst va hayotimning tayanchidir.

Xulosa qilib aytganda, men har doim dadam bilan faxrlanaman. U kishi hayot yoʻlimda nurli chiroq, mustahkam ustun va eng ishonchli suyanchimdir. Hayot yoʻllarida qanday sinovlar boʻlmasin, dadam hech qachon ortga chekinmaydilar, balki yanada dadilroq qadam tashlaydilar. Men ana shu qatʼiyatdan kuch olaman.

Dadamning mehribonligi va odamgarchiligi cheksiz. U kishi nafaqat biz, farzandlariga, balki qoʻni-qoʻshnilarga, qarindoshlarga ham har doim yordam qoʻlini choʻzadilar. U kishining birgina samimiy soʻzi inson qalbini iliq qilib yuboradi. Shuning uchun hammen dadamni hurmat qilaman va ular bilan faxrlanaman.

Mening dadam hayotimdagi eng buyuk ustozdir. U kishi menga yaxshi inson boʻlish, birovga ozor bermaslik, halol yashash va mehnat qilishni oʻrgatdilar. Dadamning birgina pandu-nasihati men uchun butun bir darslikdan ham qadrli. Men kelajakda qanday yutuqlarga erishmay, ularning duo va mehrini oʻz yonimda his qilaman.

Dadamning hayotdagi eng katta orzusi — farzandlarining kamolini koʻrish, ularga toʻgʻri yoʻl koʻrsatishdir. Shuning uchun men ham har bir qadamimda u kishining ishonchini oqlashni, u kishiga quvonch bagʻishlashni eng muqaddas burchim deb bilaman.

Men uchun dunyoda eng buyuk inson — bu mening dadamdir. U kishi mening faxrim, suyanchim, qalbimdagi qahramonimdir. Hayotimning har bir yutuq va muvaffaqiyatida dadamning mehr-muhabbati va mashaqqatli mehnati mujassamdir.

Qahramonlari: Dadam va Men!

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Jo'rayev M. Oila va ma'naviyat. – Toshkent: O'zbekiston, 2015.
3. G'ulomov A. Farzand tarbiyasida ota-ona mas'uliyati. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
4. Rasulov H. Ma'naviyat va inson kamoloti. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016.
5. Hasanboyeva O., Xudoyberdiyeva N. Pedagogika. – Toshkent: Cho'lpon nashriyoti, 2020.